

ISSN:
3030-3311



JCWS

**Volumel2
Issue17
September
2024**

OpenAIRE | EXPLORE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

INDEX



SUPPORT RESULT
JOURNALS




JOURNAL OF CONTEMPORARY WORLD STUDIES

VOLUME | 2 ISSUE | 7 SEPTEMBER | 2024

ТОМ | 2 ВЫПУСК | 7 СЕНТЯБРЬ | 2024

JILD | 2 SON | 7 SENTYABR | 2024

ISSN: 3030-3311



JCWS

Scientific journal of “Journal
of Contemporary World
Studies”:

This collection has published articles accepted into the scientific journal “Journal of Contemporary World Studies” Part 7, 2024.

All articles within the Journal were assigned the unique DOI number and indexed in Zenodo, Open Aire, Google Scholar, Index Copernicus international scientific bases.

The materials of the journal can be used by professors, independent researchers, doctorates, undergraduates, students, teachers of lyceums and schools, scientific staff and all those interested in science.

Note! The authors are personally responsible for the veracity of the figures, reports, data in scientific articles included in the collection of journal Materials and the correctness of the quotes presented.

Научный журнал “Журнал
изучения современного
мира”:

В этом сборнике опубликованы статьи, принятые в научный журнал «Журнал изучения современного мира» № 2 за 2024 год, Часть 7.

Ко всем статьям в журнале был прикреплен уникальный номер doi, проиндексированный в международных научных базах zenodo, Open Aire, Google Scholar, Index Copernicus.

Материалы журнала доступны преподавателям, независимым исследователям, докторантам, магистрантам, студентам, преподавателям средних школ и колледжей, научным сотрудникам, а также всем, кто интересуется наукой.

Примечание! Авторы несут персональную ответственность за достоверность цифр, отчетов, информации в научных статьях, включенных в сборник материалов журнала, и правильность цитирования.

«Zamonaviy dunyo
tadqiqotlari jurnali» ilmiy
jurnali:

Ushbu to‘plamda «Zamonaviy dunyo tadqiqotlari jurnali» ilmiy jurnali 2024 yil 2-soni 7-qismiga qabul qilingan maqolalar nashr etilgan.

Jurnal tarkibidagi barcha maqolalarga DOI unikal raqami biriktirilib, Zenodo, Open Aire, Google Scholar, Index Copernicus xalqaro ilmiy bazalarida indekslandi.


Jurnal materiallaridan professor-o‘qituvchilar, mustaqil izlanuvchilar, doktorantlar, magistrantlar, talabalar, litsey-kollejlar va maktab o‘qituvchilari, ilmiy xodimlar hamda barcha ilm-fanga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Eslatma! Jurnal materiallari to‘plamiga kiritilgan ilmiy maqolalardagi raqamlar, hisobotlar, ma’lumotlar haqqoniylikiga va keltirilgan iqtiboslar to‘g‘riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.



<https://supportresult.uz/>

<p>Journal of Contemporary World Studies VOLUME 2, ISSUE 7, SEPTEMBER, 2024</p>	<p>Журнал изучения современного мира ТОМ 2, ВЫПУСК 7, СЕНТЯБРЬ, 2024 г.</p>	<p>Zamonaviy dunyo tadqiqotlari jurnali JILD 2, NASHR/ 7, SENTYABR, 2024</p>
<p><u>EDITOR-IN-CHIEF</u> Soy Marina Petrovna Associate professor, PhD, Department of Economics and Tourism of the Jizzakh Branch of the National Mirzo Ulugbek University of Uzbekistan</p> <p><u>EDITORIAL BOARD</u> Bobanazarova Jamila Kholmurodovna Professor, Doctor of Economic Sciences, Jizzakh Polytechnic Institute</p> <p>Samadkulov Mukhammadjon Islom ugli Head of the Department "General Sciences", Associate Professor of the Yangiyer branch of the Tashkent Institute of chemistry and technology</p> <p><u>EDITORIAL SECRETARY</u> Saitov Sirojiddin Abduvalievich Senior lecturer of the Department of Economics and tourism of the Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek</p> <p><u>PRINTMAKER</u> Kamolov Dostonbek Rustam ogli Trainee teacher of the Department of Social sciences and physical culture of the Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek</p>	<p><u>ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР</u> Цой Марина Петровна Доцент, кандидат экономических наук, кафедра экономики и туризма Джизакского филиала Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека</p> <p><u>РЕДАКЦИОННАЯ</u> <u>КОЛЛЕГИЯ</u> Бобоназарова Джамиля Холмуродовна Профессор, доктор экономических наук, Джизакский политехнический институт</p> <p>Самадкулов Мухаммаджон Ислом угли Заведующий кафедрой "Общие науки", доцент Янгиеровского филиала Ташкентского химико- технологического института</p> <p><u>СЕКРЕТАРЬ РЕДАКЦИИ</u> Сайтов Сироджиддин Абдувалиевич Старший преподаватель кафедры экономики и туризма Джизакского филиала Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека</p> <p><u>ПОДГОТОВКА К</u> <u>ПУБЛИКАЦИИ</u> Камолов Достонбек Рустам угли Преподаватель-стажер кафедры общественных наук и физической культуры Джизакского филиала Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека</p>	<p><u>BOSH MUHARRIR</u> Soy Marina Petrovna Jizzax filiali Iqtisodiyot va turizm kafedrası dotsenti, F. F. n. O'zbekiston Milliy Mirzo Ulug'bek universiteti</p> <p><u>TAHRIRIYAT KENGASHI</u> Bobanazarova Jamila Xolmurodovna Jizzax Politexnika instituti professori, iqtisod fanlari doktori</p> <p>Samadqulov Muxammadjon Islom o'g'li "Umumkasbiy Fanlar" kafedrası mudiri, Toshkent kimyo- texnologiya instituti Yangiyer filiali dotsenti</p> <p><u>TAHRIRIYAT KOTIBI</u> Saitov Sirojiddin Abduvalievich Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali Iqtisodiyot va turizm kafedrası katta o'qituvchisi</p> <p><u>NASHRGA</u> <u>TAYYORLOVCHI</u> Kamolov Dostonbek Rustam o'g'li Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali ijtimoiy fanlar va jismoniy madaniyat kafedrası stajyor o'qituvchisi</p>



JCWS

AUTHOR

**Turdimurotov Husniddin
Salohiddin o'g'li**

Jizgak politehnika instituti talabasi

**Turdimurotov Husniddin
Salohiddin ogli**

Student of Jizgak Polytechnic Institute

**Турдимуротов Хусниддин
Салахиддин оғли**

*Студент Джизакского
политехнического института*

**©2024. Turdimurotov Husniddin
Salohiddin ogli.**

BO'LAJAK KASBIY FANLAR O'QITUVCHILARINI DASTURLASHTIRILGAN VOSITALAR ASOSIDA KASBIY TAYYORLASHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

DIDACTIC POSSIBILITIES OF PROFESSIONAL TRAINING OF TEACHERS OF FUTURE PROFESSIONAL SUBJECTS ON THE BASIS OF PROGRAMMED TOOLS

ДИДАКТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ ДИСЦИПЛИН НА ОСНОВЕ ПРОГРАММИРУЕМЫХ СРЕДСТВ

ANNOTATSIYA

Bo'lajak kasbiy fanlar o'qituvchilarining bilim va ko'nikmalarni egallash, bo'lajak mutaxassislarda texnologiya funksiyalari takomillashuviga olib keladi hamda olgan bilim va ko'nikmalarini boshqa faoliyat turlariga qo'llashga imkoniyatlar yaratadi.

ANNOTATION

The acquisition of knowledge and skills of future teachers of professional sciences leads to the improvement of technological functions of future specialists and creates opportunities to apply the acquired knowledge and skills in other types of activities.

АННОТАЦИЯ

Приобретение знаний и умений будущими преподавателями профессиональных наук приводит к совершенствованию технологических функций будущих специалистов и создает возможности для применения полученных знаний и умений в других видах деятельности.

KALIT SO'ZLAR

Virtual laboratoriya, Elektron darsliklar, kasbiy tashkilotchilik, intizomlilik, tashabbuskorlik, boshqaruvchanlik, kasbiy omilkorlik, mehnatsevarlik, qiziquvchanlik, Dasturlashtirilgan ta'lim vositasi, Avtomatlashtirilgan o'quv-axborot tizimi.

KEYWORDS

Virtual laboratory, electronic textbooks, professional organization, discipline, initiative, management, professional factorism, hard work, curiosity, programmed educational tool, automated training and Information System.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Виртуальная лаборатория, электронные учебники, профессиональная организация, дисциплина, инициатива, управляемость, профессиональный фактор, трудолюбие, любопытство, программируемый образовательный инструмент, автоматизированная учебно-информационная система.

Kirish

Respublikamizning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va mafkuraviy hayotida sodir bo'layotgan o'zgarishlar, ya'ni fan-texnika va texnologiyalarning jadal taraqqiyoti va boshqa shu ko'plab omillar uzluksiz ta'lim tizimini, shu jumladan OTMda talabalarga ta'lim berish

O'quv mashg'ulotlarini tashkil etishda fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyasining asosli mexanizmlarini ishlab chiqish, uni amaliyotga joriy etish, o'qishni, mustaqil bilim olishni individuallashtirish, masofaviy ta'lim tizimi texnologiyasi va vositalarini ishlab chiqish va o'zlashtirish, yangi pedagogik hamda axborot texnologiyalari asosida modul tizimidan foydalangan holda talabalar o'qishini jadallashtirish ana shunday dolzarb vazifalar sirasiga kiradi.

Dasturlashtirilgan ta'lim vositalardan didaktik vosita sifatida ta'lim tizimida foydalanishning samaradorligi quyidagi holatlar bilan belgilanadi:

1. Dasturlashtirilgan ta'lim vositasi asosida o'qitish talabalarga axborotlarning noan'anaviy manbaalariga murojaat qilish imkoniyatlarini ochib beradi, mustaqil ishlar samaradorligini oshiradi va ijodiy faoliyat bilan shug'ullanish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

2. Dasturlashtirilgan ta'lim vositalari qo'yilgan metodik maqsadlarni amalga oshirishi uchun o'qituvchiga o'qitishning turli shakllaridan va ularning majmuasidan foydalanish, ya'ni zaruriy ta'lim muhitini barpo etish imkonini beradi. O'qitishning DTVdan foydalanishda o'qituvchi kompyuterlashtirilgan o'qitish va nazorat qilish dasturlari sharoitdan kelib chiqib o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish imkoniyatiga ega bo'ladi.

3. Avtomatlashtirilgan o'quv-axborot tizimida foydalanishga asoslangan o'qitishning DTVlarni qo'llash natijasida o'qituvchilar o'zlarining axborot bilan ta'minlanganlik darajalarini oshiribgina qolmay, balki deyarli butun dunyodagi axborot jamlamalaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

DTVlar quyidagi turlarga ajraladi: o'rgatuvchi dasturlar, test dasturlari, mashq

qildirgichlar, o'qituvchi ishtirokidagi virtual o'quv muhitini shakllantiruvchi dasturlar.

DTVlar tarkibiga: o'quv fani bo'yicha aniq didaktik maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan dasturlashtirilgan (dasturlar majmuasi), texnik va metodik ta'minot, qo'shimcha yordamchi vositalar kiradi.

Asosiy qism

Kasbiy fanlar bu o'qituvchi rahbarligida o'quvchilar tomonidan bajariladigan aqliy va jismoniy faoliyatlar jarayonidan iborat bo'lib, yakuniy natijada ularning mehnat qurollari, vositalari va jarayonlari haqidagi bilimlarini hamda ma'lum sohadagi ishlab chiqarish mehnatini bajarish uchun zarur amaliy ko'nikma va malakalarini egallashlariga, ongli ravishda kasb tanlashga hamda jamiyat va shaxs farovonligi yo'lida mehnat faoliyatiga qo'shilishlariga imkon beruvchi shaxsiy sifatlarini va tafakkurlarini rivojlantirishga qaratilgan o'quv fanidir.

Bo'lajak kasbiy fanlar o'quvchilarining muayyan ishlab chiqarish sohalari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantiruvchi yagona o'quv fani sifatida o'ziga xos jihatlari bilan boshqa o'quv fanlaridan ajralib turadi. Kasb-hunar ta'limi muassasalaridagi kasbiy fanlar mashg'ulotlari maxsus sinf honalarida, o'quv tajriba maydonida, ishlab chiqarish korxonalarida olib boriladi. Mazkur mashg'ulotlar jarayonida ma'lum qiymatga ega bo'lgan ijtimoiy foydali mahsulotlar yaratiladi hamda kasb sohiblariga hos bo'lgan shaxs sifatleri shakllantiriladi. Bugungi bozor iqtisodiyoti sharoitida faoliyat ko'rsatadigan kasb sohiblaridan raqobatbordoshlik, muhitga tezroq moslashish talab etiladi. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda bo'lajak kasbiy fanlar o'quvchilarini kasbiy tayyorlash o'quv jarayoni mazmuni, maqsad va vazifalari o'zgardi, Mehnat ta'limi ustuvorlik kasb etdi, kasbga yo'naltirish tizimi yangilandi, bir qator didaktik vazifalar hal qilinadi. Kasbiy fanlar vazifalari bilan mazmuni murakkab dialektik bog'liqlikda bo'lib fani vazifalari turli darajada qo'yiladi va hal qilinadi. Bo'lajak kasbiy fanlar o'quvchilarining eng muhim vazifasi o'quvchilarda mehnatga va kasbga ijobiy munosabatni shakllantirishdan iborat. O'quv jarayonlariga ham,

butun pedagogik jamoaning auditoriyadan tashqari faoliyatiga ham taalluqli bo'lgan bu vazifani beistisno hamma o'quv predmetlari amalga oshiradi.

Kasbiy fanlarni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari bo'yicha islohotlarni amalga oshirishda quyidagi shart-sharoitlar yaratilishi kerak:

- ta'lim jarayonida moddiy ne'matlar ishlab chiqarishning tashkiliy, iqtisodiy, texnik va texnologik asoslarini o'rgatish;

- o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlari va mustaqilligini rivojlantirish uchun o'quv dasturlariga kasb-hunar yo'nalishlari mazmunidagi bo'limlarni, zamonaviy texnika va texnologiyalar haqidagi ma'lumotlarni kiritish;

- kasbiy ta'lim mashg'ulotlariga yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini keng joriy etish;

- kasbiy ta'limning moddiy-texnikaviy ta'minotini yaxshilash.

Kasb-hunar ta'limi muassasalarida kasbiy ta'limning bugungi kunda mavjud nazariy va amaliy, ijtimoiy, pedagogik hamda moddiy-texnik muammolarini, zidiyatlarini bartaraf etishda shuningdek yangi jamiyatda o'quvchilarni hayotga va kasbkorlikka tayyorlash, o'quvchilarda kasbkorlikning zamonaviy yo'nalishlari to'g'risida bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishda albatta bo'lajak kasbiy fanlar o'qituvchisini zamon talablari darajasida tayyorlash oliy pedagogik ta'lim muassasalari oldidagi muhim masala hisoblanadi.

Qayd etilgan muammolar va zidiyatlarni hal etishga qodir kasbiy fanlar o'qituvchisi quyidagi kasbiy sifatlarga ega bo'lish kerak:

1) yuqori g'oyaviylik. O'qituvchi o'sib kelayotgan yosh avlodning tarbiyachisi sifatida o'quvchilarni davlatimizga cheksiz sadoqat ruhida tarbiyalashi, ularni milliy dunyoqarashni shakllantirishi kerak;


2) yuqori texnik bilim, ko'nikma va malaka. Kasbiy ta'lim jarayonini samarali tashkil etish

uchun duradgorlik, tokarlik ishi elementlari va elektrotexnika elementlarini chuqur o'zlashtirganlik, 2-3 razryadli slesarlik, elektromontyorlik va boshqa shu kabi kasblar asoslarini mukammal egallagan bo'lishlari, keyingi amaliy faoliyat jarayonlarida o'z mahorati darajasini uzluksiz oshira borishi kerak;

3) yuqori pedagogik-psixologik tayyorgarlik. Kasbiy ta'lim o'qituvchisi zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarni yuksak saviyada egallabgina qolmay, balki o'quvchilarda ham ma'lum malakalarni tarkib toptirish uchun ularga bilimlar berishi kerak. Bilim va malakalarni egallash jarayonining o'z qonunlari bor, maktabdagi ta'lim shu qonuniyatlar asosida tashkil etiladi.

Kasbiy fanlar o'qituvchisi pedagogika, psixologiya fanlarining o'quv jarayoniga asos bo'ladigan muhim qoidalarini chuqur o'zlashtira olishi kerak.

«Uzluksiz ta'lim tizimi uchun o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish konsepsiyasi»da ta'kidlab o'tilganidek, milliy istiqlol g'oyasiga sodiq, yetarli intellektual salohiyatga ega, ilm-fanning zamonaviy yutuqlari asosida mustaqil fikr va mushohada yurita oladigan shaxslarni tarbiyalash hamda raqobatbardosh, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash asosida o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratishni talab etadi. O'quv adabiyotlarining yangi avlodi orasida elektron o'quv adabiyotlari DTV (Elektron o'quv qo'llanma, elektron darslik, virtual laboratoriya, elektron o'quv metodik majmua) alohida o'rin egallaydi. DTV larjuda keng qamrovli tushuncha bo'lib, ularni tayyorlash va kompyuterda saqlash formatlariga qarab quyidagi turlarga bo'lish mumkin.



Elektron o'quv metodik majmualarni ishlab chiqishdagi eng asosiy masala bu elektron o'quv metodik majmualarning sifatidir. Sifatli ishlab chiqilgan elektron o'quv metodik majmua turli xil didaktik materiallar va ta'lim resurslarini o'z ichiga oladi. Bunday elektron o'quv metodik majmua birinchi o'rinda fanni mustaqil o'rganuvchi foydalanuvchilar uchun mo'ljallangan bo'lishi va ma'lumotlarni yetkazish usullari bilab farq qilishi kerak.

Psixolog va uslubchilarning fikrlariga ko'ra mustaqil o'rganish uchun mo'ljallangan elektron o'quv metodik majmuada sifatli tayyorlangan didaktik material o'rganuvchilarda mustaqil o'rganish uchun qiziqish, motivatsiya uyg'otishiga sabab axborotlarning kompyuter grafikasi va multimedia elementlari bilan elektron shaklda berilishi bilan birga bunday elektron o'quv metodik majmua bilan ishlaganda o'rganuvchining psixik faoliyati faollashadi.

Xulosa

Mazkur mavzuda bildirilgan fikr-mulohazalarga tayangan holda quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Bo'lajak kasbiy fanlar o'qituvchilarini kasbiy tayyorlash jarayonini takomillashtirishning asosi sifatida kompyuter vositasida amalga

oshiriladigan dasturlashtirilgan ta'lim metodidan foydalanish maqsadga muvofiqligi asoslandi.

2. Bo'lajak kasbiy fanlar o'qituvchilarining o'z kasbiy faoliyatlari shakllanishi jarayonida kompyuterlardan foydalanish tartibi o'rgatuvchi ko'nikma hosil qiluvchi va nazorat qiluvchi vazifalardan iborat ekanligi hamda ularning tasnifi aniqlashtirildi.

3. Umumkasbiy va ixtisoslik fanlarni o'rganish jarayonida bo'lajak kasbiy fanlar o'qituvchisini DTVlar asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash asoslari yaratildi va didaktik imkoniyatlari ochib berildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- Butayev Sh.A., Miraahmedov B.M., Jo'rayev M.N., Do'stnazarov A.Sh., Bahodirov B. "Tashish jarayonini modellashtirish va optimallashtirish", Toshkent, O'zbekiston Fanlar akademiyasi "Fan" nashrioti. 2009 y.
- Джеймс Р., Сток Ю., Дуглас М., Ламберт. «Стратегическое управление логистикой». М.: Инфра, 2005 г.
- Азизов, О. (2022). Педагогика коллежи ўқувчиларининг коммуникатив компетенцияларини шакллантириш ва ривожлантиришда инновацион ёндашув. Innovations in primary education, (1).

4. Alikulov, S. T., & Azizov, O. E. (2021). The Structure and Content Of The System for the Formation of Communicative Competencies of Future Teachers. *Current Research Journal of Pedagogics*, 2(06), 141-151.
5. Azizov, O. (2021). Ўқувчилар каммуникатив компетенциясини “Санъат” фанларини ўқитиш жараёнида шакллантириш ва ривожлантириш. *Журнал инновации в начальном образовании*, 2(Архив№ 3).
6. Alikulov, S. T. (2020). Mechanisms of implementation of interdisciplinary relationships between public education and vocational sciences. In *Эффективность применения инновационных технологий и техники в сельском и водном хозяйстве*.
7. Azizov, O. E. (2022). Turabov AM The Importance of Approaches and Trends in the Development of the Components of Communicative Competence. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, 124-126.
8. Azizov O.E., *Pedagogika kolleji o‘quvchilariga kommunikativ kompetensiyalarning tarkibiy qismlari. Namangan davlat universiteti – ilmiy axboratnomasi. OAK Jurnal. 2021y.11.02 (2-son).*
9. Джураев Р. У. и др. АНАЛИЗ РАБОТЫ И ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ КОМПРЕССОРНЫХ УСТАНОВОК НА ГЕОЛОГОРАЗВЕДОЧНЫХ РАБОТАХ //INTERNATIONAL SCIENTIFIC REVIEW OF THE PROBLEMS AND PROSPECTS OF MODERN SCIENCE AND EDUCATION. – 2018. – С. 29-31.
10. Sobirovna K. D. et al. DEVELOPMENT OF SMALL BUSINESS AND ENTREPRENEURSHIP-A SPRINGBOARD FOR ENSURING MACROECONOMIC STABILITY //The journal of contemporary issues in business and government. – 2021. – Т. 27. – №. 2. – С. 5512-5519.
11. Kuchimov A. et al. AN INNOVATIVE APPROACH TO TEACHING GREEN ECONOMY: A MULTIDISCIPLINARY EXPLORATION //Journal of Contemporary World Studies. – 2024. – Т. 2. – №. 3. – С. 59-62.
12. Hamraqulovich K. A. et al. RAQAMLASHGAN TA’LIM VA UNING OTM BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI ROLI //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2022. – С. 352-356.
13. Qosimova D., Ko‘chimov A. Fundamentals of investment environment in the process of digital transformation of the economy //Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development. – 2022. – Т. 9. – С. 417-421.
14. Kuchimov A., Unnisa S. A., Najmiddinov D. DEFINING THE TYPES OF THE SHADOW ECONOMY //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 65-70.